

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.Gr.01.17 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YUSUPOV BAXRIDIN NORMO‘MINOVICH**

**AHOLINING TABIIY VA MEXANIK HARAKATLARINI  
KARTAGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

**11.00.06 – Geodeziya. Kartografiya**

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Geografiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по географическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor philosophy (PhD) on  
geographical sciences**

**Yusupov Baxridin Normo'minovich**

Aholining tabiiy va mexanik harakatlarini kartaga olishni takomillashtirish.....3

**Юсупов Бахридин Нормуминович**

Совершенствование картографирования естественных и механических  
движений населения.....21

**Yusupov Baxridin Normuminovich**

Improving the mapping of natural and mechanical movements of the  
population.....39

**E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works .....43

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.Gr.01.17 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YUSUPOV BAXRIDIN NORMO‘MINOVICH**

**AHOLINING TABIIY VA MEXANIK HARAKATLARINI  
KARTAGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

**11.00.06 – Geodeziya. Kartografiya**

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/Gr416 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.nuu.uz](http://www.nuu.uz)) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Safarov Eshqobul Yuldashovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Sultanov Murodjon Qilichovich**  
geografiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Mo'minov Abdujalil Abdusalom o'g'li**  
geografiya fanlari falsafa doktori (PhD)

**Etakchi tashkilot:**

**"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Gr.01.17 raqamli Ilmiy Kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2026-yil 30-iyul soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko'chasi, 4 uy. Tel.:(+99871) 227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21; 246-02-24. E-mail: [ik-geografiya.nuuz@mail.ru](mailto:ik-geografiya.nuuz@mail.ru). O'zbekiston Milliy universiteti, Geografiya va geoaxborot tizimlari fakulteti).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№152 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko'chasi, 4 uy. Tel.:(+99871) 246-67-71.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 7-iyul kuni tarqatildi (2026-yil 6-iyuldagi 83-raqamli reestr bayonnomasi).

**Sh.M.Sharipov**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
Ilmiy Kengash raisi g.f.f.d., professor

**M.M. Avezov**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
Ilmiy Kengash ilmiy kotibi g.f.f.d., (PhD), dotsent

**Z.N.Tojiyeva**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
Ilmiy Kengash qoshidagi ilmiy  
seminar raisi g.f.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda va uning turli mintaqalarida kechayotgan demografik jarayonlarni o‘zida tavsiflovchi kartalarni tuzish va zamonaviy geoaxborot texnologiyalar asosida raqamlashtirish, veb kartografik xizmatlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada Birlashgan Millatlar Tashkilotining aholi fondi (UNFPA) tomonidan “butun davlatning kartasini tuzish, aholini ro‘yxatga olish amaliyotini kuzatish, olingan ma’lumotlarni tahlil qilish, tarqatish va ulardan foydalanishni puxta rejalashtirish, ma’lumotlar yaratish va amalga oshirish”<sup>1</sup> vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda zamonaviy geoaxborot texnologiyalaridan foydalanib, ma’lum davrdagi aholi soni, hududiy taqsimoti, tabiiy va mexanik harakatlari haqidagi geoma’lumotlar bazasini yaratish, tizimlashtirish, raqamlashtirish va baholash kartalarini yaratish alohida dolzarblik kasb etadi.

Jahonda mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarga, ayniqsa, interaktiv rejimda ishlaydigan veb kartografik xizmat va kartalarni yaratish, ularning funktsionalligini oshirish, turli xil sharoitlarda oson moslashuvchan foydalanuvchi interfeysga ega bo‘lgan veb platformalarni yaratish va ularni takomillashtirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Shuningdek, turli sohalarida keng qo‘llanilib kelinayotgan GAT texnologiyalari orqali geoma’lumotlar bazasini yaratish, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini baholashga imkon beruvchi veb kartalar seriyasini tuzish, kartografik usullarga asoslangan holda veb kartalarni yaratish metodlarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar muhim hisoblanadi.

Respublikamizda demografik jarayonlarni tartibga solishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda va sezilarli ijobiy natijalarga erishilmoqda. Jumladan, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “...aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish”<sup>2</sup> yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, jumladan, O‘zbekistondagi aholining tabiiy harakati, ichki va tashqi migratsiya jarayonlari, ularning muddatlari, bu boradagi ko‘rsatkichlarni kartaga olishning metodlarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar dolzarbdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-sonli “2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida Farmoni, 2025 yil 19 sentyabrdagi PF-173-son “O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

<sup>1</sup> <https://www.unfpa.org/census>

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirish dasturining VIII. “Yer haqidagi fanlar”, IV. “Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishlariga mos keladi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Tadqiqotga oid mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, aholi harakatlarini o‘rganish va ularni kartalarda tasvirlashda chet ellik olimlardan R.Makkonell, J.Keyns, R.Tomlinson, A.Smit, Y.Kornai, K.Xaub, R.Derenger, R.Petti, J.Burjua-Pisha, A.Landri va boshqalar tadqiq etishgan. MDH davlatlari olimlaridan A.G.Rudenko, A.I.Priobrajenskiy, A.Maryanskiy, A.S.Boyarskiy, A.E.Kotlyar, B.D.Breev, V.A.Borisov, V.I.Perevedensev, V.I.Staroverov, V.A. Kopilov, V.I.Yushkov, V.P.Shotskiy, G.Strumilin, G.M.Lappo, D.I.Valentiniy, J.A.Zaychonskaya, I.Y.Levitskiy, K.V.Papenov, M.I.Nikishov, M.G.Trudova, P.M.Polyan, T.A.Ashimboyev, L.L.Rubakovskiy. P.Voronov, E.R.Soruxanov kabi olimlar ilmiy asarlarida demografik jarayonlarni nazariy va uslubiy asoslari yoritilgan bo‘lsa, jarayonlarni kartaga olishning nazariy va uslubiy asoslarini esa A.M.Berlyant, A.P.Zolovskiy, V.P.Raklov, V.R.Bashirov, K.A.Salishev, M.S.Zatslavskiy, N.N.Baranskiy, O.A.Evteev va boshqalarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan.

O‘zbekistonda demografik jarayonlarga oid ilmiy tadqiqotlarda M.Q.Qoraxonov, I.R.Mullajonov, O.B.Ota-Mirzaev, A.S.Soliev, M.R.Bo‘riyeva, A.A.Qayumov, Z.X.Rayimjonov, Z.N.Tojiyeva, F.A. Do‘smonov, M.I.Nazarov, X.X.Abduramanov, Q.Z.Abduraxmonov, A.G. Abdullaev, O‘.Sh. Yakubov va boshqalarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin. Aholi va demografik kartalarga oid ilmiy tadqiqotlar bilan T.Mirzaliev, J.Nazirov, E.Y. Safarov, A.Egamberdiyev, S.A.Avezov, S.N.Abduraxmonov, D.N.Raxmonov va boshqa olimlar izlanishlar olib borganlar va ijobiy natijalarga erishganlar.

Mazkur tadqiqot aholining tabiiy va mexanik harakatlarini zamonaviy GAT texnologiyalari asosida kartaga olish hamda ma’lumotlari yangilanib turiladigan veb kartografik xizmatlarning yaratilganligi bilan yuqoridagi qayd etilgan tadqiqotlardan farq qiladi.

**Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqotlar rejasining Erasmus+ dasturi DSinGIS – “Geoinformatika sohasida doktorantura” mavzusidagi (2018-2021 yy.) xalqaro loyihasi va 1250957-sonli “GNSS yordamida kosmik suratlarni planli-balandlik bog‘lash” (2023 y.) xo‘jalik shartnomasi asosidagi tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O‘zbekiston aholisining tabiiy va mexanik harakatlarini kartaga olish metodlarini takomillashtirish hamda veb kartografik xizmatini yaratishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

O‘zbekistonda aholining tabiiy va mexanik harakatlarining hozirgi holatini o‘rganish, tahlil qilish va baholash;

demografik kartaga olish manbalarini zamonaviy metodlarda to'plash, GAT ma'lumotlar bazasini yaratish;

aholining tabiiy va mexanik harakatlari kartalarini yaratishning metodlarini takomillashtirish;

O'zbekiston Respublikasi aholisining tabiiy va mexanik harakatlarini internetga asoslangan veb kartografik xizmatini yaratish;

geoinformatsion kartaga olish usullari va texnologiyalariga asoslangan holda aholining tabiiy va mexanik harakatlari dinamik kartalarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O'zbekiston aholisining tabiiy va mexanik harakati olingan.

**Tadqiqotning predmeti** veb kartografiya va GAT texnologiyalarini qo'llash asosida respublika aholisining tabiiy va mexanik harakatlarini kartaga olishni takomillashtirish va veb kartografik xizmatini yaratish masalalari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya tadqiqotida dala tadqiqot, anketa-so'rov, kartografik, matematik modellashtirish, statistik tahlil, geoinformatsion va veb kartaga olish metodlari va GAT texnologiyalaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

ArcGIS survey123 dasturida O'zbekistonning ayrim hududlari aholisi o'rtasida o'tkazilgan ijtimoiy-demografik anketa so'rovnomasi orqali respondentlar manzili (geolokatsiyasi) joylashtirilgan kartasi yaratilgan;

O'zbekiston aholisining tabiiy va mexanik harakatlarining GAT texnologiyalariga asoslangan veb kartografik xizmati yaratilgan;

aholining tabiiy va mexanik harakatlarini geoinformatsion kartaga olish usullari orqali aholining tabiiy va mexanik harakatlarini kartaga olish metodi takomillashtirilgan;

O'zbekiston aholisining tabiiy va mexanik harakatlarini tavsiflovchi tizim kartalari yaratilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ArcGIS survey123 dasturida aholi o'rtasida ijtimoiy-demografik anketa so'rovnomasi o'tkazilib, respondentlar manzili (geolokatsiyasi) joylashtirilgan kartasi yaratilgan;

aholining tabiiy va mexanik harakatlarini kartografik hamda geoinformatsion kartaga olish usullari orqali O'zbekiston aholisi tabiiy va mexanik harakatlarini internetga asoslangan veb kartografik xizmati yaratilgan;

ArcGIS, ArcGIS PRO dasturiy ta'minotlarida O'zbekiston aholisining tabiiy va mexanik harakatlarining geoma'lumotlar bazasi ishlab chiqilgan;

maxsus grafik dasturlar va GAT-texnologiyalari asosida O'zbekiston Respublikasi aholisining tabiiy va mexanik harakatlari dinamik kartalari yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** O'zbekiston Respublikasi hukumati ochiq ma'lumotlari portalida mavjud barcha vazirlik va idoralarning axborotlari, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi raqamli ma'lumotlaridan, O'zbekiston Respublikasi Urabanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi materiallaridan, shuningdek, muallifning tadqiqot doirasidagi shaxsiy kuzatishlari

va izlanishlari xulosalaridan foydalanilganligi bilan izohlanadi. Undan tashqari, olib borilgan tadqiqotlar natijasida, GAT texnologiyalari asosida yaratilgan aholining tabiiy va mexanik harakatlari dinamik kartalari, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati aholining tabiiy va mexanik harakati kartalarining mazmuni bo'yicha tasniflangani, kartografik xizmatlarni yaratish metodining takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati GAT texnologiyalari asosida aholining tabiiy va mexanik harakatlarining geoma'lumotlar bazasi hamda kartografik xizmatning yaratilgani, uning tarkibidagi ma'lumotlar zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Aholining tabiiy va mexanik harakatlarini kartaga olishni takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

ArcGIS survey123 dasturida O'zbekistonning ayrim hududlari aholisi o'rtasida o'tkazilgan ijtimoiy-demografik anketa so'rovnomasi natijasida yaratilgan respondentlar kartasi O'zbekiston Respublikasi Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligida viloyatlar va tumanlar aholi kartalarini yaratishda amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2025 yil 04-dekabrda 05/13708-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, aholi joylashuvi kartalarini takomillashtirish imkoniyatini bergan;

O'zbekiston aholisining tabiiy va mexanik harakatlarini internetga asoslangan veb kartografik xizmati O'zbekiston Respublikasi Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligida viloyatlarning aholi kartalarini yaratishda amaliyotda joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2025 yil 04-dekabrda 05/13708-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, viloyatlar aholisining tabiiy va mexanik harakatlarini internetga asoslangan kartografik xizmatini yaratish imkoniyatini bergan;

geoinformatsion kartaga olish usullari va GAT-texnologiyalari asosida takomillashtirilgan aholining tabiiy va mexanik harakatlarini kartaga olish metodi O'zbekiston Respublikasi Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligida respublikamiz aholi kartalarini tuzishda amaliyotda joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2025 yil 04-dekabrda 05/13708-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, aholi va aholining tabiiy, mexanik harakatlari kartalarining maxsus mazmunini shakllantirishda va kartalarini tizimlashtirishda atlas kartalari uchun optimal komponentlar qilib yaratilgan;

ArcGIS, ArcGIS Pro dasturiy ta'minotlari va geoinformatsion kartaga olish metodlari asosida yaratilgan O'zbekiston aholisining tabiiy va mexanik harakati

kartalari O‘zbekiston Respublikasi Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligida viloyatlar aholisining tabiiy va mexanik harakati kartalarini yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2025 yil 04-dekabrda 05/13708-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, viloyatlarning kompleks ilmiy ma‘lumotnoma atlaslari tarkibiga kiritilgan aholi kartalarining maxsus mazmunini ishlab chiqish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari jami 6 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan va maqullangan.

**Tadqiqot natijalarning e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 108 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari, obykti, predmeti va usullari belgilangan, tadqiqotning respublikada fan va texnikani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligini asoslanganligi, ularning nazariy va amaliy ahamiyatini ochib beradi, natijalarni amalga oshirish va ishning aprobatsiyasi, shuningdek, dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Aholining tabiiy va mexanik harakatlari va ularni kartaga olishning nazariy-uslubiy jihatlari**” deb nomlangan birinchi bobida aholining tabiiy va mexanik harakatlari, asosiy tiplari, shakllari, sabablari, muddatlari, respublikamiz aholisining demografik rivojlanishining qisqacha tarixi, aholi kartalarining taxlili bayon qilingan.


Respublikamiz dunyodagi ko‘p millatli hududlardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillar ma‘lumotlari taqqoslab ko‘rilganda, 1939-yilgi aholi ro‘yxatida respublikamizda 97 ta, 1959-yilgi ro‘yxatda 113 ta, 1979-yilgi ro‘yxatda 120 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qilib kelgan. 1989-yildagi aholi ro‘yxatida esa, respublikada 125 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qilib kelgan, ularning umumiy hisobdagi soni 19 mln. 880 ming kishni tashkil qilganligi ma‘lum bo‘ldi.

Aholi zichligi 1 km<sup>2</sup> ga 83,6 kishi to‘g‘ri keladi. O‘zbekiston aholisi Markaziy Osiyodagi jami aholining 45 % dan ko‘proq qismini tashkil qiladi. 2025-yil 1-yanvar holati bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi aholisi 37 543,2 ming kishi

bo‘lib, erkaklar 18 904,5, ayollar 18 638,7 ming kishini, shahar aholisi 19 135,8 ming, qishloq aholisi 18 407,4 ming kishini tashkil etadi (1-rasm).

O‘zbekistonda mehnat yoshi erkaklar uchun 16-59 yosh, ayollar uchun 16-54 yosh qilib belgilangan. Mehnat yoshidan yuqori, ya’ni 55 va undan katta ayollar, 60 va undan katta erkaklarning umumiy soni 2024-yilda 11,6 % ni tashkil qilgan.

Respublikada demografik vaziyatining eng muhim xususiyatlari – aholi o‘shish sur‘atlarining yuqori o‘sib borishi, aholi tabiiy harakati ko‘rsatkichining ko‘payishi, tashqi migratsiya natijalarining manfiyligi, shahar aholisi salmog‘ining ko‘payishi va boshqalar.




**1-rasm. Aholi sonining o‘shishi**

Yurtimizning shahar aholisi turlicha joylashgan bo‘lib, asosiy qismi Toshkent shahriga to‘g‘ri keladi. Ammo Toshkent shahri aholisining respublika aholisi sonidagi ulushi so‘nggi yillarda deyarli o‘smagan, natijada 1990-yildan 2024-yilgacha 10,5 % dan 8,2 % gacha kamaygan. Bugungi kunda O‘zbekiston aholisining 28,6 % qismi Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlariga to‘g‘ri keladi. 1991-2024 yillarda Respublikamiz viloyatlari bo‘yicha shahar aholisining o‘shishida sezilarli darajada ko‘tarildi. 2024-yil holatiga ko‘ra respublika hududlarida shahar aholisining ulushi quyidagicha Andijonda 52,2 %; Namanganda 64,88 %; Toshkent viloyatida 50,1 %; va Farg‘onada 56,88 % ni va qolgan viloyatlarda nisbatan pastroq holatni tashkil qilgan.

**Aholining tabiiy harakati.** Respublikada aholi tabiiy harakatiga oid manbalar XIX-asrning 2-yarmidan boshlab mavjud. Aholining tabiiy harakati natijasi tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlariga bog‘liq. Yurtimizda XIX-asr oxiri XX-asr boshlarida tug‘ilish ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan. 1865-1917 yillarda tug‘ilishning umumiy koeffitsiyenti (har 1000 ta kishiga nisbatan tug‘ilganlar soni) 45-50 % ni tashkil etgan. Tabiiy harakat natijasi doimo ijobiy bo‘lgan (2-rasm).

Respublikada 1980-2015 yillarda o‘lim koeffitsiyenti 7,5 ‰ dan 4,9 ‰ gacha qisqardi. Mazkur jarayon, asosan, go‘daklar, bolalar va o‘rta yoshdagi kishilar o‘rtasida o‘lim darajasining kamayishi bilan bog‘liq. Aholi o‘limining keskin kamayishiga tibbiy xizmat ko‘rsatish sohalarining rivojlanishi katta ta’sir ko‘rsatadi. Agar 1886-1920 yillarda O‘zbekistonda har 1000 kishi hisobiga


o‘lganlar soni 40-34 kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2010 yildan keyin bu ko‘rsatgich 4,8 va 2024-yilda esa 4,7 kishini tashkil etgan.



**2-rasm. Aholining tabiiy harakati dinamikasi**

**Aholi migratsiyasi.** Respublika aholisi sonining o‘zgarishiga migratsiyaning ta’siri katta bo‘lgan. 2010-2015 yillar mobaynida migratsiya tufayli respublika aholisi 230,7 ming kishiga kamaygan. Ammo migratsiya saldisining manfiy qoldig‘iga e’tibor qaratadigan bo‘lsak so‘nggi yillarda qisqarib borayotganligini kuzatish mumkin (3-rasm).

Respublikada ichki migratsiya ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. O‘tgan asrning 60-70 yillarida Mirzacho‘lning o‘zlashtirilishi munosabati bilan bu erga Farg‘ona vodiysi hamda Samarqand va Jizzax viloyatlarining ba’zi joylaridan ma’lum qism aholi ko‘chib kelishgan.




**3-rasm. Aholining mexanik harakati dinamikasi**

**Urbanizatsiya.** Respublika dunyoning ilk urbanizatsiya o‘choqlaridan biri hisoblanadi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Termiz, Qarshi va Shahrisabz shaharlari 2000- 2700 yillik tarixga ega. Respublikaning turli xududlarida topilgan shaharlar qoldiqlari (Afrosiyob, Axsi, Pop, Nasaf, Kesh, Poykend va boshqa) ham

bu erda urbanizatsiyaning qadamgi davrlardan rivijlanib kelganligidan dalolat beradi.

O‘zbekistonda 2025-yil holatiga ko‘ra 120 ta shahar va 1059 ta shaharcha mavjud bo‘lib, ularda 19 139,4 ming kishi yoki respublika jami aholisining 51 % yashaydi.

Turli yillarda shaharlar aholisi soni turlicha bo‘lib, tabiiy va mexanik harakatlar natijasida shaharlar aholisi ko‘payishi bilan birgalikda vertikal va gorizontal holatda kengayib borgan. Toshkent shahri ham tabiiy va mexanik harakatlar natijasida vertical va gorizontal xolatda kengaygan (4-rasm).



**4-rasm. Aholining tabiiy va mexanik harakati natijasida Toshkent shahrining gorizontal kengayishi**

Barcha mintaqalarda aholi kartalarini tuzishning asosiy manbalari, birinchi navbatda, statistik manbalar hisoblanadi.

Dunyoning aksariyat mamlakatlarida aholi kartalari asosan milliy atlaslarda joy olgan. Aholi kartalarini tuzishda obyektlari soni bir necha o‘nlab, ba‘zan esa yuzlab bo‘lishi mumkin. Mintaqaviy darajada aholini kartaga olish geografiya va kartografiyaning an‘analari rivojlangan mamlakatlarda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Milliy atlasida ham bir-qancha aholi kartalari o‘rin olgan. O‘zbekiston Milliy atlas – mamlakatning geografik, tarixiy, madaniy va tabiiy

xususiyatlarini aks ettiruvchi kartografik asar bo'lib, O'zbekistonning barcha viloyatlari, shahar va tumanlarining to'liq kartalari, tabiiy resurslari, iqtisodiy hududlari, transport tarmoqlari, aholi soni va joylashuvi, tarixiy obidalari va boshqa ko'plab ma'lumotlar bilan boyitilgan.

Tadqiqot ishining **“Aholini kartaga olish manbalarini to'plash, metodlar, GAT dasturlarini tanlash”** deb nomlangan ikkinchi bobida demografik kartalashtirish manbalarini to'plashning an'anaviy metodlari: ro'yxatga olish, anketa-so'rovlar, dala tadqiqotlari yoritilgan. Zamonaviy GPS, GAT, MZ va boshqa metodlarning demografik manbalarini to'plash va tahlil qilishdagi roli bayon etilib, demografik GAT ma'lumotlar bazasini yaratish uchun materiallar, dasturlar, hisoblash algoritmlari ishlab chiqilgan.

**Aholi kartalarini tuzish uchun foydalaniladigan demografik ma'lumotlar.** Demografik ma'lumotlar quyidagi asosiy manbalardan olinadi:

- davlat statistika organlari ma'lumotlari;
- aholini ro'yxatga olish natijalari;
- so'rovnomalar va intervyular orqali to'plangan ma'lumotlar;
- xalqaro tashkilotlar (BMT, Dunyo banki va h.k.) bazalari;
- masofadan zondlash va GPS ma'lumotlari.

Zamonaviy texnologiyalar an'anaviy manbalarni boyitish va ulardagi ma'lumotlarni aniqlashtirish imkonini beradi.

GPS texnologiyasi demografik ma'lumotlarni to'plashda real vaqtda, geografik koordinatalari bilan to'plash imkonini beradi. Bu esa demografik ma'lumotlarni joylashuvi bilan birgalikda qayd etish imkoniyatini yaratdi.

GPS ning demografik ma'lumotlarni to'plashda asosiy afzalliklari:

- to'plangan ma'lumotlarning aniqligini oshirish;
- migratsion harakatlarni ko'rsatish;
- raqamli kartaga olish ishlarini bajarish imkonini beradi;
- anketa so'rovnomalarni geografik joylashuvi bilan bog'lash;
- aholining bir hududdan boshqa hududga ko'chishi, vaqtinchalik yoki doimiy o'zgartirish holatlari;
- odamlarning kundalik yo'nalishlari, ish va uy masofasi, sayohat joylari va vaqtlari tahlil qilinadi;
- qaysi hududlarda aholi zichroq yashaydi, qaysi hududlar aholi uchun kamroq qiziqarli - shularni aniqlash;
- turizm sohasida mehmonlarning qaysi joylarga ko'p borayotganligini kuzatish.

Hozirgi kunda MZ texnologiyalari yordamida sputnik tasvirlari orqali demografik ma'lumotlarni tahlil qilish imkonini bermoqda.

MZ orqali amalga oshiriladigan ishlar:


- yangi uy-joy massivlarini aniqlash;
- urbanizatsiya darajasini baholash;
- migratsiya jarayonlarini kosmik tasvirlar orqali kuzatish;
- tabiiy ofatlar oqibatida aholi ko'chishini tahlil qilish.
- MZ yordamida turli qishloq va shahar hududlaridagi aholi turar joylari

sonini tahlil qilish.

Ushbu ma'lumotlardan aholining taxminiy soni va zichligini hisoblashda foydalanish mumkin. Masalan: Sentinel-2 yoki Landsat tasvirlari orqali shaharlarning kengayish dinamikasi tahlil qilinishi mumkin.

Dala tadqiqotlari jarayonida, aholi punktlarida GPS uskunalar orqali xonadonlar koordinatalari aniqlanadi va keyinchalik GATga o'tkaziladi. GAT dasturlarining funktsional imkoniyatlaridan foydalanib, aholi o'rtasida ijtimoiy-demografik anketa so'rovnoma o'tkazilishi va natijalari kartalarda avtomatik aks etishi maqsadga muvofiqdir.

ArcGIS survey123 dasturida aholi o'rtasida ijtimoiy-demografik anketa so'rovnoma o'tkazildi. Ijtimoiy-demografik anketa so'rovnoma online va offline shakllarda o'tkazildi (5-rasm). So'rovnoma Surxondaryo viloyati ba'zi hududlari aholisi o'rtasida o'tkazilgan bo'lib, ilmiy jihatdan yangilik sifatida ArcGIS survey123 dasturi orqali aholining yashash joyi bo'yicha koordinatasi ham birgalikda olinib, kartasi yaratildi.



**5-rasm. ArcGIS survey123 dasturida savollar ketma-ketligining joylashuvi**


Har bir savolning javobi dasturning o'zida tahlil qilinib, diagramma shaklida ifodalanadi. Dasturga barcha savollar kiritilgandan so'ng ushbu savollar ketma-ketligi bo'yicha javoblarni istalgan ko'rinishdagi diagrammada ifodalash imkoni paydo bo'ldi.

Respondentlar manzili (geolokatsiyasi) bo'yicha yuqoridagi 6-rasmdagi ko'rinishi bo'yicha ifodalanadi. Bunda har bir qizil rangli nuqta respondentlarning manzilini bo'yicha ifodalaniib, ularning sonidan kelib chiqqan holda har bir nuqta bitta yoki bir necha respondentni bildirishi mumkin (6-rasm).

Aholi kartalarini yaratish uchun yuqoridagi ma'lumotlar bilan bir qatorda statistik ma'lumotlarni koeffitsientlarda ifodalash talab etiladi.

2024 yilda O'zbekiston aholisining tabiiy harakati 752,009 ming kishini, migratsion harakati - 8,615 ming kishini, umumiy o'sishi 743,394 ming kishini va

tugʻilishning umumiy koeffitsiyenti 24,92 ‰ ni, oʻlimning umumiy koeffitsiyenti 4,69 ‰ ni, tabiiy oʻsishning umumiy koeffitsiyenti 20,23 ‰ va shunga muvofiq ravishda umumiy oʻsish koeffitsiyenti 20,00 ‰ ni, migratsion (mexanik) oʻsish (kamayish) koeffitsiyenti – 0,23 ‰ ni tashkil etgan. Ushbu statistik maʼlumotlar respublika aholi kartalari uchun viloyatlar kesimida, viloyatlar aholi kartalari uchun tumanlar kesimida tayyorlanib, demografik GAT maʼlumotlar bazasi yaratildi.



**6-rasm. Respondentlar manzillari (geolokatsiyasi)**

Maʼlumotlar bazasi ArcGISda umumiy fayl tizimi popkasida - Microsoft Acces maʼlumotlar bazasida yoki korporativ relyatsion maʼlumotlar bazasida (masalan, Oracle, Microsoft SQL Server, PostgreSQL, Informix yoki IBM DB2) saqlanadigan har xil turdagi geografik maʼlumotlar toʻplamidir. Ular kichik, faylga asoslangan, bitta foydalanuvchi maʼlumotlar bazalaridan koʻp foydalanuvchi kirishiga ega boʻlgan katta guruh, sanoat va korporativ geomaʼlumotlar bazalariga oʻtishlari mumkin.

Dissertatsiyaning **“GAT texnologiyalari asosida aholini tabiiy va mexanik harakatlarini kartaga olish hamda kartografik xizmatlarni yaratish”** deb nomlangan uchinchi bobida GAT texnologiyalari asosida aholi kartalari tizimlarini yaratishning printsiplari, GAT dasturlari haqida maʼlumotlar berilgan. Aholining tabiiy va mexanik harakatlarini internetga asoslangan veb kartografik xizmati yaratilgan. ArcGIS Pro dasturida aholini tabiiy va mexanik harakatlarini kartaga olish boʻyicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Zamonaviy GAT texnologiyalari va veb-texnologiyalar asosida aholi kartalarini ishlab chiqishda muhim rol oʻynaydi. Quyida hozirgi kunda ilgʻor texnologiyaarni keltirish mumkin: ArcGIS; ArcGIS Pro; QGIS; Google Earth Engine; GrassGIS; SAGAGIS; ErdasImagine; ENVI; Rstudio.


Dastlab aholining tabiiy va mexanik harakatlarini kartaga olish metodi takomillashtirib olindi. Quyidagi 7-rasmda Aholining tabiiy va mexanik harakatlarini kartaga olishning takomillashtirilgan metodi berilgan.

Aholining tabiiy va mexanik harakatlarini kartaga olish metodidan foydalangan holda zamonaviy *ArcGIS Pro* dasturida aholi kartalarni tuzish ishlari olib borildi.

Aholi kartasini yaratish jarayonida *ArcGIS Pro* dasturining keng koʻlamli va

ilg'or funktsional imkoniyatlaridan samarali foydalanish imkoni mavjud. Bu dastur nafaqat demografik-statistik ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish, balki ularni tahlil qilish, "ma'lumotlar orqali jamiyat yuragi qanday urayotganini" kartada ko'rsatishga xizmat qiladi.

Bu jarayonda geoma'lumotlar asosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Geoma'lumotlar - bu muayyan geografik hudud yoki nuqtaga bog'langan, hudud va ma'lumotning mushtarak birlashmasidan iborat axborotlardir.



**7-rasm. Aholining tabiiy va mexanik harakatlarini kartaga olish metodi**

Geoma'lumotlar turli formatlarda mavjud bo'lishi mumkin:

- shaklli fayllar (shapefile);
- rastr formatlar (masalan, TIFF, JPEG2000);
- dbf kabi jadval shaklidagi fayllar.

Shuningdek, keng ma'lumot qamroviga ega Microsoft Excel jadvallari ham GAT muhitida tahlil va vizualizatsiya qilish uchun qulay material bo'lib xizmat qiladi.

Har bir ma'lumot - bir nuqta, har bir jadval - bir manzara, har bir qatlam esa jamiyat hayotining bir bo'lagi, uning dinamikasini ifoda etuvchi axborot manbai hisoblanadi. *ArcGIS Pro* dasturi esa ana shu turli xil qatlam va ma'lumotlarni bir-biri bilan uyg'un holda birlashtirib, tahlilga mos, interaktiv elektron kartalarni yaratish imkonini beradi.

Bu jarayon quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi: Dastlab quyidagi holatda vazifa belgilab olindi:

1. *ArcGIS Pro* dasturida O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy vektor qatlami (viloyatlar bo‘yicha) yuklandi. Bu qatlam aholi zichligini hisoblash va kartada aks ettirish uchun asos vazifasini bajaradi. Respublikasining umumiy aholi soni ma‘lumotlarini maydonli vektorli qatlam atributi jadvalini *ArcGIS Pro* dasturiga kiritildi;


2. Excel formatdagi jadvalda respublika viloyatlari bo‘yicha umumiy aholi soni kiritilgan bo‘ladi. Bu jadval *ArcGIS Pro* dasturiga import qilinadi va mavjud vektor qatlamning atributlar jadvali bilan umumiy maydon (masalan, viloyat nomi) asosida bog‘landi.

3. Qatlamning atributlar jadvalida yangi maydon (masalan, “Maydon\_km2”) yaratildi. Bu maydonga “Calculate Geometry” uskunasi yordamida har bir hududning yuzasi (ga yoki km<sup>2</sup>da) hisoblandi. Bu ma‘lumot aholi zichligini hisoblash uchun zarur. “Symbology > Primary symbologly > Charts > Pie chart” diagrammasi yordamida umumiy aholi soni miqdorli ko‘rsatkichlari kartada tasvirlandi, diagrammalar uchun shaffof fon “Hollow background” berildi;

4. Yangi ikkita maydon yaratiladi (masalan: “Zichlik” va “YangiZichlik”). “Field Calculator” orqali “umumiy aholi soni / er maydoni” formulasi yordamida har 1 km<sup>2</sup> erga to‘g‘ri keladigan aholi soni aniqlandi. Bu real aholi zichligini ifoda etadi.

5. Aholi soni miqdorini kartada ko‘rsatish uchun “Symbology > Charts > Pie chart” orqali diagrammalar yaratildi. Diagrammalar shaffof fon “Hollow” bilan berilsa, kartaning fonidagi ma‘lumotlar ham yaxshi ko‘rinadi.

6. “Viloyatlar” qatlamini nusxa qilib olib, u original qatlam ostiga qo‘yildi. So‘ng “Symbology > Quantities > Graduated Colors” orqali aholi zichligi 6 sinfga ajratiladi va har bir sinf alohida rangda tasvirlandi (8-rasm).



**8-rasm. Hududlar bo‘yicha aholi zichligi kartasi**


Aholi tarkibini yosh va jins kesimida tahlil qilish uchun Excel jadvalidan erkaklar va ayollar, shahar va qishloq aholisi soni dinamikasi, mehnat resurslari va aholi bandligi bo'yicha ma'lumotlar ajratib olindi. Ushbu ma'lumotlar "maydonli\_viloyatlar" qatlamiga bog'landi. Qatlam atribut jadvalida yangi ustunlar yaratilib, tegishli aholi soni kiritildi. Diagrammali kartaga diagrammalar joylashtiriladi va "Layout > Share > Export Layout" orqali JPEG formatda eksport qilindi. Har bir viloyat uchun erkak va ayollar miqdorini ko'rsatuvchi sektorli diagrammalar kartaga chiroyli va tushunarli tarzda joylashtirildi. Umumiy aholi sonidan erkaklar va ayollar bo'yicha ko'rsatkichlar statistik ma'lumotlar asosida, odatda Excel formatda taqdim etiladigan jadvallardan ajratib olindi. Bu jadvallarda aholining jins va yosh guruhlari bo'yicha tasniflangan holda aks ettirildi.

Bu ma'lumotlar asosida ArcGIS Pro dasturida vizual tahlil o'tkazish uchun, dasturning ma'lumotlar panelida joylashgan vektor formatdagi respublika ma'muriy bo'linishiga oid qatlam masalan, "maydonli\_viloyatlar" ochildi. Ushbu qatlamdagi har bir hudud (viloyat) uchun atributlar jadvali mavjud bo'lib, unga aholiga oid yangi ma'lumotlarni kiritish mumkin.

Hozirgi vaqtda kartografiya va geoaxborot texnologiyalari sohasida geoaxborot tizimlari (GAT) va internetni birlashtirish (integratsiyalash) tendentsiyalari kuzatilmoqda, bu esa o'z navbatida yangi yo'nalish – veb kartografiyaning shakllanishiga asos bo'ldi.

An'anaviy demografik tahlil usullari, asosan, statistik jadvallar va hisobotlarga asoslanib, ma'lumotlarning fazoviy xususiyatini, ya'ni aholi harakatlarining qaysi hududlarda, qaysi yo'nalishlarda va qanday intensivlikda sodir bo'layotganini etarli darajada aks ettira olmaydi. Bu yondashuv ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish va ular o'rtasidagi fazoviy bog'liqliklarni aniqlashda sezilarli cheklovlarni yuzaga keltiradi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari, xususan, Veb - GAT (Geografik axborot tizimlari) ushbu cheklovlarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Internetga asoslangan veb kartografik xizmatlar demografik ma'lumotlarni interaktiv va dinamik fazoviy muhitda tahlil qilish, vizualizatsiya qilish hamda qaror qabul qiluvchi shaxslarga aniq va tushunarli ma'lumotlarni taqdim etish imkoniyatini yaratdi (9-rasm).



**9-rasm. O'zbekiston aholisining veb kartografik xizmati**

Tadqiqotimizda yaratilgan aholining tabiiy va mexanik harakatlarini internetga asoslangan veb kartografik xizmatini foydalanuvchilar mazkur <https://www.arcgis.com/apps/dashboards/7519dd73af374d508d3a61cdfe4bdeb3> havola orqali foydalanishlari mumkin.

## XULOSA

Amalga oshirilgan tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni chiqarishga, taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi.

1. Aholining tabiiy va mexanik harakatlari, asosiy tiplari, shakllari, sabablari, muddatlari va xususiyatlari o'rganildi. Tabiiy va mexanik harakat jarayonlariga ta'sir qiluvchi omillar aniqlandi. Yurtimiz aholisining demografik rivojlanishining tarixiy davrlari o'rganilib, bosqichlarga ajratildi, bu respublikamizda mavjud aholining turli yillardagi holati bo'yicha dinamik kartalarini tuzish imkonini berdi.

2. Aholini kartaga olishda O'zbekistonda tuzilgan karta va atlaslar, shuningdek, boshqa, qo'shni davlatlarda tuzilgan demografik mavzudagi karta va atlaslar o'rganilib atroflicha tahlil qilindi. Bular natijasida tuziladigan aholi kartalari uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

3. Yurtimiz aholisi ro'yxatga olingan yillar (1897, 1920, 1926, 1939, 1959, 1970, 1979, 1989) va ro'yxatga olish natijasida to'plangan ma'lumotlar (umumiy aholi soni, erkaklar va ayollar soni, shahar va qishloq aholisi soni, ko'chib kelish va ko'chib ketish, ichki va tashqi migratsiya jarayonlari va boshqalar) asosida jadval ishlab chiqildi. Aholini ro'yxatga olish va uni o'tkazish amaliyoti bo'yicha jahon tajribasi o'rganildi, sinov tariqasida yurtimizda o'tkazilgan aholi ro'yxati bo'yicha kerakli xulosalar ishlab chiqildi. O'zbekiston istiqlolga erishgandan so'ng 2026-yilda ilk marotaba aholini ro'yxatga olish tadbiri o'tkazildi. Aholini ro'yxatga olish tarixidagi oxirgi va ishonchli manba jadvaldagi 1989-yilgi ma'lumotlar hisoblanadi. 2026-yilda o'tkazilgan aholi ro'yxati aholi to'g'risida aniq va eng ishonchli ma'lumot olish imkonini beradi.

4. Demografik kartaga olish manbalarini to'plashning an'anaviy metodlari, ro'yxatga olish, anketa so'rovlarini o'tkazishda jahon tajribasi o'rganildi. Aholi o'rtasida online va an'anaviy qog'oz shaklida ArcGIS survey123 dasturida ijtimoiy-demografik anketa so'rovnomasi o'tkazilib, barcha savollarning javobi dasturning o'zida tahlil qilingan va digrammalarda ifodalanib, respondentlar manzili (geolokatsiya) kartasi yaratildi.

5. GPS, GAT, MZ va boshqa metodlarning demografik manbalarni to'plash, tahlil qilish va qayta ishlashdagi roli tahlil qilindi. Aholi kartalarini loyihalash va tuzish bosqichlari ishlab chiqildi. Aholi hamda aholining tabiiy, mexanik harakatlar kartalari mazkur bosqichlar yordamida tuzildi.

6. O'zbekiston Respublikasi aholisining demografik ma'lumotlari bilan boyitilgan internetga asoslangan veb kartografik xizma yaratildi. Ta'lim tizimi va ishlab chiqarishning turli sohalari xodimlari uchun internetga asoslangan, demografik ma'lumotlar kiritilgan kartalar juda muhimdir. Mazkur kartografik xizmatdan foydalanib, turli soha xodimlari kerakli va qiziqarli ma'lumotlarini olishlari mumkin.

7. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston demografiyasining fazoviy tahlili sohasida Veb -GAT texnologiyalaridan foydalangan holda yangi ilmiy va amaliy yondashuvni taklif etadi. Dissertatsiya tadqiqoti aholining tabiiy va mexanik harakatlarini o‘rganish uchun demografiya, geoinformatika va kartografiya fanlarini birlashtirgan kompleks ma’lumotlar bazasi ishlab chiqildi. Natijada, aholining demografik ko‘rsatkichlarini interaktiv va dinamik tarzda vizualizatsiya qilishga qodir bo‘lgan tizim arxitekturasi loyihalandi.

8. Aholi kartalarini loyihalash va tuzish metodi takomillashtirildi. Aholining tabiiy va mexanik harakatlari jarayonlarini GAT dasturlari yordamida kartalarda tasvirlashda mazkur metoddan keng ko‘lamda foydalanish mumkin.

9. Arc GIS Pro dasturida aholini karta olish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Natijada, O‘zbekiston Respublikasi va ba’zi viloyatlarning aholi kartalari yaratildi. Mazkur aholi kartalaridan talabalar, o‘quvchilar, ishlab chiqarish va ta’lim tizimining professor–o‘qituvchilari ham foydalanishlari mumkin.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ  
DSc.03/2025.27.12.Gr.01.17 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**  

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА**

**ЮСУПОВ БАХРИДИН НОРМУМИНОВИЧ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КАРТОГРАФИРОВАНИЯ  
ЕСТЕСТВЕННЫХ И МЕХАНИЧЕСКИХ ДВИЖЕНИЙ НАСЕЛЕНИЯ**

**11.00.06 – Геодезия. Картография**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО  
ГЕОГРАФИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент – 2026**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по географическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2025.3.PhD/Gr416**

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета по адресу ([www.nuu.uz](http://www.nuu.uz)) и на Информационно-образовательном портале «Ziynet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

<b>Научный руководитель:</b>	<b>Сафаров Эшқобул Юлдашович</b> доктор технических наук, профессор
<b>Официальные оппоненты:</b>	<b>Султанов Муроджон Киличович</b> доктор географических наук (DSc), доцент <b>Муминов Абдужалил Абдусалом угли</b> доктор философии по географии (PhD)
<b>Ведущая организация:</b>	<b>Национальный исследовательский университет «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства»</b>

Защита диссертации состоится 30-июля 2026 года в 10:00 часов на заседании разового Научного совета при Научном совете DSc.03/2025.27.12.Gr.01.17 по присуждению ученых степеней при Национальном университете Узбекистана (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, дом 4. Тел.: (+99871) 227-12-24, факс: (+99871) 246-53-21; 246-02-24. E-mail: [ik-geografiya.nuuz@mail.ru](mailto:ik-geografiya.nuuz@mail.ru). Факультет Географии и геинформационных систем Национального университета Узбекистана,).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирован за №152). Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Университетская, дом 4. Тел.: (+99871) 246-67-71.

Автореферат диссертации разослан 7-июля 2026 года.  
(Протокол реестра № 83 от 6-июля 2026 года).

**Ш.М.Шарипов**

Председатель Разового Научного совета по присуждению учёных степеней, д.г.н., профессор

**М.М.Авезов**

Ученый секретарь Разового Научного совета по присуждению учёных степеней, д.ф.г.н., (PhD), доцент

**З.Н.Тожиева**

Председатель научного семинара при разовом Научном совете по присуждению учёных степеней, д.г.н., профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (PhD))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Создание карт, описывающих демографические процессы происходящие в мире и его различных регионах, и их оцифровка на основе современных геоинформационных технологий, создание веб-картографических сервисов становятся актуальными. В этой связи Фонд ООН в области народонаселения (ЮНФПА) поставил задачи по «созданию карты всей страны, мониторингу процесса регистрации населения, анализу полученных данных, распространению и тщательному планированию их использования, а также формированию и внедрению данных»<sup>1</sup>. При реализации этих задач особое значение приобретает создание, систематизация, оцифровка и оценка базы геоданных о численности населения, его территориально размещении, естественных и механических движениях за определенный период с использованием современных геоинформационных технологий.

В мире приоритет отдается исследованиям в этом направлении, особенно созданию веб-картографических сервисов и карт, работающих в интерактивном режиме, расширению их функциональности, созданию и совершенствованию веб-платформ с легко адаптируемым пользовательским интерфейсом в различных условиях. Также актуальным является создание базы геоданных на основе технологий ГИС, которые широко применяются в различных областях, создание серии веб-карт, позволяющих оценить социально-экономическое положение регионов, а также совершенствование методики создания веб-карт на основе картографических методов.

В нашей республике реализуется ряд реформ, направленных на регулирование демографических процессов, и достигаются значительные положительные результаты. В частности, в Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы обозначены важные задачи по «...обеспечению занятости и сокращению бедности»<sup>2</sup>. В этой связи большое значение приобретают исследования, направленные на совершенствование методов картографирования естественного движения населения Узбекистана, процессов внутренней и внешней миграции, их сроков и индикаторов.

Данное диссертационное исследование в определенной мере послужит реализации задач, обозначенных в Указе Президента Республики Узбекистан от 6 июля 2022 года № УП-165 «Об утверждении Стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2022-2026 годы», Указе от 11 сентября 2023 года № УП-158 О Стратегии «Узбекистан-2030», Указе от 19 сентября 2025 года № УП-173 «О проведении переписи населения и сельского хозяйства в Республике Узбекистан», Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 7 октября 2025 года «О мерах по проведению переписи населения и сельского хозяйства в Республике Узбекистан» и других нормативно-правовых актах, связанных с данной деятельностью.

---

<sup>1</sup> <https://www.unfpa.org/census>

<sup>2</sup> Указ Президента Республики Узбекистан, от 28.01.22 г. № УП-60 “О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы”

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики VIII. “Науки о Земле”, IV “Развитие информатизации и информационно-коммуникационных технологий”.

